

## C. Monster-Go

Masala nomi	Monster-Go
Vaqt chegarasi	1 soniya
Xotira chegarasi	1 gigabayt

Helen va uning do'stlari telefonlari uchun ajoyib yangi o'yinni kashf qilishdi. *Monster-Go* deb nomlangan o'yin ochiq havoda turli xil hayvon uyalariga borib, hayvonlarni ushlash haqidadir. Har bir uyada, o'sha uyada yashaydigan hayvondan cheksiz miqdorda mavjud. Do'stlar hayvon uyasiga kelganlarida, ularning har biri bitta hayvonini ushlaydi va o'z jamg'armasiga qo'shadi. Do'stlar tutishlari mumkin bo'lган jami 50 lik turli xil hayvonlar bor, ularning  $0, 1, \dots, 49$  sonlari bilan raqamlangan.

O'yinni yanada qiziqarli qilish uchun  $N$  nafar do'stlar, har bir o'yinchining o'zi to'plashi uchun shaxsiy 12 talik hayvonlar ro'yxati bo'lishi kerakligiga qaror qilishdi.

O'z ro'yxatidagi barcha hayvonlarni birinchi bo'lib ushlagan ishtirokchi o'yinda g'alaba qozonadi.

Ular ro'yxatlarini shunday loyihalashni istaydilarki, ular hayvon uyalariga tashrif buyurishlar tartibidan qat'i nazar, har doim yagona, noyob g'olib mavjud bo'lsin. Ya'ni hech qachon durrang holat duch kelmasin.

Do'stlar har doim bir guruh bo'lib aylanib yurishadi va hayvonlarning uyalariga birga kelishadi.

Ularga ro'yxatlarni tuzishda yordam bera olasizmi? Sizning ballingiz  $N$  sonining qiymatiga, o'yinni o'ynaydigan ishtirokchilar soniga dasturingiz to'g'ri javob berishiga bog'liq.

### Kirish

Kirishning birinchi va yagona satrida  $N$  butun soni, o'yinchilar soni o'qib oling.

### Chiqish

Javob sifatida ekranga  $N$  ta qatorni chiqaring, bunda  $i$ -qatorda 12 ta takrorlanmaydigan sonlar  $c_{i,1}, c_{i,2}, \dots, c_{i,12}$  (bu yerda  $0 \leq c_{i,j} \leq 49$ )ni,  $i$  ishtirokchining ro'yxatidagi hayvonlarni chiqaring. Agar bir nechta yechim mavjud bo'lsa, istalganini chop etishingiz mumkin.

## Chegaralar va baholash

- $1 \leq N \leq 50$ .

Sizning yechimингиз har бир бир неча ballga eга bo'lgan subtasklarda sinovdan o'tkaziladi. Bunda  **$i$ -subtask yagona testdan,  $N = i$  shartini qanoatlanadiradigan testdan iborat va 2 ball bilan baholanadi**. Demak, jami 50 testlar mavjud (har bir  $N = 1, 2, \dots, 50$  uchun bittadan) va bu masala bo'yicha sizning ballingiz aynan dasturingiz to'g'ri javob bergen testlar sonidan ikki baravar ko'p.

Subtask	Ball	Cheklovlar
1	2	$N = 1$
2	2	$N = 2$
3	2	$N = 3$
:	:	:
49	2	$N = 49$
50	2	$N = 50$

## Misollar

Namunada,  $N = 2$  do'stlar mavjud bo'lsa, dastur ikkita ro'yxatni chiqarishi kerak. Darhaqiqat, namunaviy chiqishdagi ikkita ro'yxat uchun do'stlar hayvonlar uyasiga tashrif buyurish tartibidan qat'i nazar, bir vaqtning o'zida ikkalasi ham g'alaba qozona olmaydi. E'tibor bering, boshqa ko'plab to'g'ri javoblar mavjud.

Kirish	Chiqish
2	0 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 38 39 40 41 42 43 44 45 46 47 48 49